









JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-aprel oylari uchun dastlabki ma'lumot)

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 129,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 5,8 mln. AQSh dollariga yoki 4,7 % ga oshdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	123,3	129,1	104,7	x
Eksport 	30,6	59,7	195,1	100,0
 <i>tovarlar</i>	30,5	59,6	195,4	99,8
 <i>xizmatlar</i>	0,1	0,1	100,0	0,2
Import 	92,7	69,4	74,9	100,0
 <i>tovarlar</i>	92,7	69,4	74,9	100,0
 <i>xizmatlar</i>	0,0	0,0	0,0	0,0
Saldo 	-62,1	-9,6	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 59,7 mln. AQSh dollariga (95,1 % ga oshdi) va import hajmi 69,4 ming. AQSh dollariga (74,9 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 9,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



JIZZAX VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	46,2	19,8	26,4	35,8
Rossiya Federatsiyasi	18,1	13,7	4,4	14,0
Turkiya	15,1	10,0	5,1	11,7
Koreya	14,0	0,0	14,0	10,8
Qozog'iston	8,9	5,6	3,3	6,9
Litva	3,2	0,0	3,2	2,5
Gonkong	2,9	0,0	2,9	2,2
Pokiston	2,8	2,8	0,0	2,2
Avstraliya	2,4	0,0	2,4	1,9
Italiya	1,7	1,7	0,0	1,3

Viloyatimiz jahonning 60 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (46,2 %), Rossiya Federatsiyasida (18,1 %), Turkiyada (15,1 %), Koreyada (14,0 %), Qozog'istonda (8,9 %), Litvada (3,2 %), Gonkongda (2,9 %), Pokistonda (2,8 %) Avstraliyada (2,4%) va Italiyada (1,7 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA da MDH davlatlari orasida Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya va Koreya hissasiga to'g'ri kelgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 dan ortiq yirik hamkor-davlatlar orasidan 16 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (9,3 mln. AQSh dollari), Turkiya (4,9 mln. AQSh dollari), Pokiston (2,7 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (2,2 mln. AQSh dollari), Italiya (1,7 mln. AQSh dollari), Afgoniston (1,4 mln. AQSh dollari), Tojikiston (1,2 mln. AQSh dollari), Polsha (0,3 mln. AQSh dollari), Ozarbayjon (0,3 mln. AQSh dollari),

Ukraina (0,2 mln. AQSh dollari), Portugaliya (0,2 mln. AQSh dollari), Eron (0,1mln. AQSh dollari), Indoneziya (0,1 mln. AQSh dollari), Ispaniya (0,1 mln. AQSh dollari), Iroq (0,04 mln. AQSh dollari) va BAA (0,03 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



JIZZAX VILOYATINING 20 TA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI
(2021-yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	33,8	48,2	46,2
Eksport	5,2	4,1	19,8
Import	28,7	44,1	26,4
Saldo	-23,5	-40,1	-6,5
Rossiya Federatsiyasi	26,2	17,1	18,1
Eksport	10,5	9,7	13,7
Import	15,7	7,3	4,4
Saldo	-5,2	2,4	9,3
Turkiya	26,7	12,7	15,1
Eksport	6,0	7,4	10,0
Import	20,7	5,2	5,1
Saldo	-14,6	2,2	4,9
Koreya Respublikasi	10,2	6,2	14,0
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	10,2	6,2	14,0
Saldo	-10,2	-6,2	-14,0
Qozog'iston	8,9	2,7	8,9
Eksport	4,2	2,1	5,5
Import	4,7	0,6	3,3



Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Saldo	-0,5	1,4	2,2
Litva	17,0	17,1	3,2
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	17,0	17,1	3,2
Saldo	-17,0	-17,1	-3,2
Gonkong	0,4	0,8	2,9
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	0,4	0,8	2,9
Saldo	-0,4	-0,8	-2,9
Pokiston	0,6	0,5	2,7
Eksport	0,4	0,5	2,7
Import	0,2	0,0	0,0
Saldo	0,2	0,5	2,7
Avstraliya	0,0	0,0	2,4
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	0,0	0,0	2,4
Saldo	0,0	0,0	-2,4
Italiya	0,6	1,0	1,7
Eksport	0,5	0,7	1,7
Import	0,1	0,3	0,0
Saldo	0,4	0,3	1,7
Tojikiston	2,4	2,0	1,7
Eksport	2,4	2,0	1,5
Import	0,0	0,0	0,2
Saldo	2,4	2,0	1,2
Germaniya	1,6	1,2	1,6
Eksport	0,5	0,0	0,0
Import	1,1	1,2	1,6





Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Saldo	-0,6	-1,2	-1,6
Hindiston	0,8	0,7	1,5
Eksport	0,0	0,1	0,2
Import	0,8	0,6	1,3
Saldo	-0,8	-0,5	-1,1
Afgoniston	0,7	0,4	1,5
Eksport	0,0	0,0	1,5
Import	0,7	0,4	0,0
Saldo	-0,7	-0,4	1,5
Qirg'iziston	0,7	1,5	1,5
Eksport	0,6	1,5	0,7
Import	0,1	0,0	0,8
Saldo	0,1	1,5	0,1
Eron	2,8	0,8	1,4
Eksport	1,3	0,2	0,8
Import	1,5	0,6	0,6
Saldo	-0,1	-0,4	0,2
Polsha	0,9	0,5	0,7
Eksport	0,2	0,0	0,5
Import	0,7	0,5	0,2
Saldo	-0,5	-0,5	0,3
Ukraina	2,5	0,4	0,6
Eksport	0,9	0,3	0,4
Import	1,6	0,1	0,2
Saldo	-0,8	0,2	0,2
Belarus	1,3	0,9	0,5
Eksport	0,2	0,3	0,0
Import	1,1	0,7	0,5

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Saldo	-0,9	-0,4	-0,5
Bangladesh	0,1	0,2	0,4
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	0,1	0,2	0,4
Saldo	-0,1	-0,2	-0,4

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga tayanib, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 24,6 % ni tashkil etib, 2020- yilning shu davriga nisbatan ulushi 20,6 % ga oshdi.



JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning 2021- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 73,8 % tashkil etib, 2020- yilning shu davriga nisbatan 94,7 % ga kamaydi.

JIZZAX VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-aprel)

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning eksportyorlari soni 88 tani tashkil etib, ular tomonidan 59,7 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 94,9 % ga oshdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,8 % ni tashkil etib, sanoat tovarlari (67,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (15,8 %), turli xil tayyor buyumlar (9,8 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (3,6 %), mashina va asbob-uskunalari (0,7 %) nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (2,5 %), hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar (0,0 %) guruxi hissasiga to'g'ri kelmoqda.



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-aprel mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	59,7	195,4	100,0	22,1	137,1	100,0	37,6	2,6 m	100,0
<i>shu jumladan:</i>									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9,4	2,1 m	15,8	4,3	2,3 m	19,4	5,1	194,5	13,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,5	161,0	2,5	0,4	4,3 m	1,8	1,1	132,6	3,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,1	5,2 m	3,6	0,5	162,7	2,3	1,6	16,3m	4,3
Sanoat tovarlari	40,2	2 m	67,4	10,6	115,5	47,8	29,7	2,8 m	78,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,4	110,3	0,7	0,4	112,0	1,6	0,0	98,8	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	5,9	137,8	9,8	5,9	141,9	26,5	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	0,1	99,6	0,2	0,1	161,1	0,5	0,0	39,7	0,1

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga

eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari guruhiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinlar turli xil tayyor buyumlar guruhi hissasiga to'g'ri kelmoqda.



EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021-yil yanvar-aprel, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	31,5	14,6	15,8
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10,2	2,9	2,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,4	0,7	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,8	1,4	3,6
Sanoat tovarlari	36,9	64,6	67,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	5,9	1,2	0,7
Turli xil tayyor buyumlar	11,1	13,9	9,8
Xizmatlar	0,2	0,4	0,2

2021- yilning yanvar-aprel oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-apreliga nisbatan sanoat tovarlari guruhida o'sish kuzatildi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel)




XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	7,2	193,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,4	4,5 m
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,0	0,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,3	2,7 m
Shakar va shakarli mahsulotlar	0,01	8,4 m
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1,0	126,1
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,1	95,8
Metall rudalari va metall parchalari	0,0	0,0
Qog'oz massasi va makulatura	0,0	0,0
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	0,0	0,0
Yog 'urug'lari	0,3	7,5 m
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	0,0	0,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,0	0,0
O'g'itlar	0,9	6,9 m
Boshqa joyda tafsiflanmagan kimyoviy mahsulotlar	0,0	0,0
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1,0	8,8 m
Birlamchi bo'lmagan plastik	0,2	124,4

Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	40,2	2 m
Yog'ochdan tayyorlangan buyumlar	0,0	0,0
Cho'yan va po'lat	0,1	71,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2,6	147,4
Metaldan tayyorlangan buyumlar	0,1	56,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	0,0	0,0
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	0,0	0,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	0,03	150,5
Muayyan tarmoqlar uchun maxsus ishlab chiqarilgan mashinalar	0,0	0,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	0,4	106,6
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	5,8	141,2
Poyabzal	0,0	0,0
Har xil tayyor buyumlar	0,03	5,2 m
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	0,0	0,0


O'tgan yilga nisbatan umumiy eksport hajmi oshdi va MDH mamlakatlarining jami eksportdagi ulushi 2020-yil yanvar-aprel oyidagi 52,6 % dan, 2021-yilning yanvar–aprel oyida 37,0 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 2020- yilning shu davrida 47,4 % ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-aprel oyida 63,0 % ga kamaydi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR
EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**



2021- yilning yanvar-aprel oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida, Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 33,2 %), Rossiya Federatsiyasi (22,9 %), Turkiya (16,8 %), Qozog'iston (9,3 %) va Pokiston (4,6 %) davlatlari egallab turibdi, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 87,4 foizni tashkil etmoqda.



2021- yilning yanvar-aprel oyida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Xitoy yetakchi mavqegini saqlab turibdi. Keyingi

holatda Rossiya Federatsiyasi egalladi. Rossiya Federatsiyasidan ozgina ortda qolgan Turkiya uchinchi pog'onani egallab turibdi.

Joriy yilning yanvar-aprel oyida hamkor mamlakatlarning tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi (2020- yilning mos davriga nisbatan 27 ta davlat) 23 ta davlat bilan amalga oshdi.



**JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy	4,1	19,8	79,2	4,8 m	3	1
Rossiya Federatsiyasi	9,7	13,7	93,1	140,6	1	2
Turkiya	7,4	10,0	122,9	135,2	2	3
Qozog'iston	2,1	5,5	49,8	2,7 m	4	4
Pokiston	0,5	2,7	135,1	5,7 m	8	5
Italiya	0,7	1,7	127,2	2,6 m	7	6
Afgoniston	0,4	1,5	49,0	4,1 m	10	7
Tojikiston	2,0	1,5	82,6	73,3	5	8
Eron	0,2	0,7	13,4	4,1 m	13	9
Qirg'iziston	1,5	0,7	283,6	43,7	6	10
Polsha	0,5	0,5	294,4	101,9	9	11
Ukraina	0,3	0,4	40,2	113,8	11	12
Ozarbajjon	0,0	0,3	55,3	25,9 m	25	13
Hindiston	0,1	0,2	252,6	2,1 m	16	14
Portugaliya	0,0	0,2	0,0	0,0	0	15
Indoneziya	0,0	0,1	0,0	0,0	0	16

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari guruhlari kiradi.



VILOYATNING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

XSST tarkibi	Xitoy		Rossiya		Turkiya		Qozog'iston	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	48,2	46,2	17,1	18,1	12,7	15,1	2,8	8,9

shu jumladan:


Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,4	3,2	2,2	0,8	0,3	0,1	1,1	6,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,3	0,8	3,3	0,1	1,3	0,9	0,0	0,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,1	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,2	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,4	3,1	0,8	1,6	0,4	0,3	0,0	0,2
Sanoat tovarlari	13,3	20,1	6,9	8,6	7,3	9,6	1,4	1,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	29,4	18,3	1,0	0,7	3,1	3,5	0,1	0,05
Turli xil tayyor buyumlar	1,6	0,6	2,9	6,0	0,3	0,7	0,0	0,1
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki Xitoy, Rossiya, Qozog'iston va Turkiya davlatlariga eksportning asosiy ulushi sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va turli xil tayyor buyumlar guruhi hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmatlar eksporti hajmi 0,1 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,2 % ini tashkil etib, 2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 99,7 % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (95,3) % transport xizmatlari (17,9 %) va safarlar (turizm) (12,2 %) xizmatlari hissasiga to'g'ri keladi.



XIZMATLAR EKSPORTI
(2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-mart, ming AQSh dollari)

Xizmatlar	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da
Jami xizmatlar	125,8	125,4	99,7
Transport xizmatlari	57,0	17,9	31,4
Safarlar (turizm) xizmatlari	12,7	12,2	96,1
Moliyaviy xizmatlar	56,2	95,3	169,6


JIZZAX VILOYATIINING IMPORTI
(2021- yil yanvar-aprel)

2021-yilning yanvar-aprel oyida viloyatning importyorlari soni 198 tani tashkil etib, ular tomonidan 69,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2020-yilning mos davriga nisbatan 74,9 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar import qilinishi ta'minlandi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (57,8 %) va sanoat tovarlari (12,5 %) guruhi hisobiga to'g'ri keladi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-aprel oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,3 mln. AQSh dollariga kamaydi va 69,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	69,4	74,9	100,0	9,6	105,5	100,0	59,8	71,5	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,7	2,2 m	9,6	4,4	163,7	46,3	2,2	7,3 m	3,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,8	19,0	1,3	0,1	2,9	1,0	0,7	71,2	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,6	120,6	0,8	0,6	129,7	5,8	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,0	0,3	0,2	0,0	2,1	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	7,3	119,2	10,6	1,7	178,9	17,4	5,7	108,5	9,5
Sanoat tovarlari	8,7	69,2	12,5	1,5	2,6 m	15,4	7,2	60,1	12,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	40,1	66,6	57,8	0,7	75,7	7,5	39,4	66,5	65,9
Turli xil tayyor buyumlar	4,9	85,2	7,1	0,4	3,5 m	4,2	4,5	79,8	7,6
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 5,6 % dan 9,6 % gacha va sanoat tovarlari 5,6 % dan

12,5 % gacha o'sdi. Mashinalar va transport asbob-uskunalari importining ulushi esa 67,7 % dan 57,8 % ga kamaydi.



IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2020- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,6	3,3	9,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,8	4,8	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,8	0,5	0,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,4	0,0	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	6,7	6,6	10,6
Sanoat tovarlari	5,6	13,5	12,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	67,7	65,0	57,8
Turli xil tayyor buyumlar	6,2	6,2	7,1
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0



XSTT BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel)



Mahsulot nomi	MIn. AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,9	2,8 m
Tirik hayvonlar	3,4	85,3 m
Sut mahsulotlari	0,3	3,2 m
Meva va sabzavotlar	0,1	4,2 m
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	0,1	144,9
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,5	27,2
Go'sht va g'osht mahsulotlari	0,4	100,1
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	0,1	3,0
Metall rudalari va metall parchalari to'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	0,0	0,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,4	39,3
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	0,4	6,2 m
Kauchuk va rezina	0,0	0,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,6	119,4
Ko'mir, koks va briketlar	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	0,0	0,0
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	0,2	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2,0	113,9
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	7,3	119,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1,6	89,2
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	0,1	127,4
Organik kimyo moddalari	1,2	4,2 m
Kraska va bo'yoq vositalari	0,1	63,0



Noorganik kimyo moddalari	0,8	197,1
Birlamchi bo'lmagan plastik	0,6	54,8
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	1,8	48,4
Metaldan tayyorlangan buyumlar	1,2	49,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1,2	34,7
Boshqa joyda tasniflanmagan rezina buyumlari	0,4	6,6 m
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	3,1	116,7
Rangli metall	0,9	3,7 m
Qog'oz va karton	0,1	7 m
Yog'ochdan ishlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,04	35,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	14,5	103,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	3,7	10,1
Avtomobillar va extiyot qismlari	11,7	11,4 m
Ish yuritish va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uskunalari	4,3	118,5 m
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	3,5	75,1
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	0,7	50,3
Energogenerator mashina uskunalari	0,2	12,5
Boshqa transport uskunalari	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3,4	179,9
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	0,4	12,7
Har xil tayyor buyumlar	0,8	192,0
Poyafzal	0,0	0,0
Mebel va uning qismlari, yotar-joy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,2	109,4
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,1	0,0



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2020- yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori o'tilikda o'zgarish kuzatilmadi.

Joriy yilning yanvar-aprel oyida hamkor mamlakatlarning tovar va xizmatlar importi bo'yicha geografiyasi (2020- yilning mos davriga nisbatan 37 ta davlat) 41 ta davlat bilan amalga oshdi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK
HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-aprel)**

Davlat nomi	mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	44,1	26,4	154,0	59,7	1	1
Koreya Respublikasi	6,2	14,0	61,3	2,3 m	4	2
Turkiya	5,2	5,1	25,3	97,2	6	3
Rossiya	7,3	4,4	46,7	60,2	3	4
Qozog'iston	0,7	3,3	14,6	4,9 m	10	5
Litva	17,1	3,2	100,5	19,0	2	6
Gonkong	0,8	2,9	220,4	3,7 m	8	7
Avstraliya	0,0	2,4	0,0	0,0	55	8
Germaniya	1,2	1,6	112,7	130,5	7	9
Hindiston	0,6	1,3	69,9	2,3 m	13	10
Qirg'iziston	0,0	0,8	0,0	0,0	29	11
Eron	0,6	0,6	38,5	108,3	12	12
Belarus	0,7	0,5	60,5	80,2	11	13
Bangladesh	0,2	0,4	119,4	2,6 m	16	14
Avstriya	0,1	0,4	12,1	4,2 m	18	15
AQSH	0,0	0,3	0,0	0,0	22	16
Shveysariya	0,03	0,2	4,2	7,9 m	24	17
Ukraina	0,1	0,2	5,4	2,6 m	19	18
Tojikiston	0,0	0,2	0,0	0,0	31	19
Zellandiya	0,0	0,2	0,0	0,0	38	20



2021 yil yanvar-aprel oyida import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 38,0 % ulushi bilan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan yana birinchi o'rinni egalladi.

Yetti yirik hamkor davlatlar Xitoy Xalq Respublikasi (38,0 %), Koreya Respublikasi (20,2 %), Turkiya (7,3 %), Rossiya Federatsiyasi (6,4 %), Qozog'iston (4,8 %), Litva (4,7 %) va Gonkong (6,6 %) jami importning 85,6 % ulushini egalladi va 59,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Litva va Gonkong tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.: (72) 221 51 26
bo'limi**